



YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18640810>

Maftuna Ibadullayeva Ilhomboy qizi

*O'zMPU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi(huquq ta'limi) I-kurs
magistranti*

Ilmiy rahbar; Kadirova.Y.B

“Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonining nazariy-pedagogik asoslari, mazkur jarayonning ijtimoiy zaruriyati, zamonaviy ta'lim tizimidagi o'рни va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy faoliyat kabi asosiy tushunchalarning mazmuni ochib beriladi, ta'lim muassasalarida huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonidagi mavjud kamchiliklar, yutuqlar, istiqbolli pedagogik yechimlar tahlil qilinadi. Yoshlar ongida qonuniylik, huquqiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, fuqarolik pozitsiyasi, pedagogik asoslar, yoshlar, ma'naviy tarbiya, huquqiy kompetensiya, jamiyat, ta'lim tizimi.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri — aholining, ayniqsa, yosh avlodning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirishdir. Bu borada ko'plab ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida “Yoshlar siyosati”, “Huquqiy tarbiya konsepsiyasi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunlar va bir qator normativ hujjatlar aynan yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy yoshlar raqamli axborot makonida faol bo'lib, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonida mustaqil qaror qabul qilishi, o'z huquq va majburiyatlarini to'g'ri anglab yetishi zarur. Shu bois ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri — huquqiy madaniyati yuksak, fuqarolik pozitsiyasi shakllangan, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxsni tarbiyalashdir.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat huquq fanini o'qitish, balki butun ta'lim-tarbiya jarayonining uzviy qismi hisoblanadi. Mamlakatda kechayotgan islohotlar, sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar, fuqarolik jamiyatining



rivojlanishi yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ularda huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, qonuniylik tamoyillariga amal qilishni ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega.

Shu boisdan bu jarayoni o'rganish oldidan asosiy tushunchalarni belgilan olib, ularning mazmunini anglash lozim. Huquqiy ong — shaxsning huquqiy bilimlari, qadriyatlari va huquqiy jarayonlarga munosabatini aks ettiradigan ijtimoiy tafakkur shaklidir. Huquqiy ongning yuksakligi jamiyatda tartib, qonuniylik va adolat tamoyillarining qaror topishida muhim rol o'ynaydi.

Yoshlarda huquqiy ongni rivojlantirilgandan so'ng ularda huquqiy madaniyat tushunchasini shunday shakllantirish lozim. Huquqiy madaniyat — shaxsning huquqiy bilimlarga egaligi, huquqiy normalarga ijobiy munosabati, amaldagi qonunlarga rioya etish ko'nikmalari va fuqarolik mas'uliyati ifodasidir. Huquqiy madaniyat shaxsiy (individual), guruhviy va jamiyat darajasida namoyon bo'ladi. Huquqiy madaniyati shakllangan shaxslargina jamiyatni rivojlantira oladi. Bunday shaxslar davlatning kelajagi hisoblanadi.

Shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida huquqiy tarbiyani ham unitmasligimiz lozim. Huquqiy tarbiya bu yoshlarni huquqiy

bilimlar bilan qurollantirish, ularda qonunlarga hurmat, mas'uliyat, intizomlilikni shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik faoliyat.

Zeroki, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya shakllangan shaxslarda faol fuqarolik pozitsiyasi rivojlanadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi deyilganda shaxsning jamiyat hayotiga befarq bo'lmasligi, davlat siyosatida faol ishtiroki, qonunlarga amal qilishi, ijtimoiy jarayonlarda mas'uliyatli qaror qabul qila olishi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoning pedagogik asoslari huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni quyidagi pedagogik omillar asosida amalga oshiriladi:

1. Ta'limning uzluksizligi — maktabgacha, maktab, kollej/teknikum, oliy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim bosqichlarida huquqiy tarbiyaning izchilligi.

2. Interfaol pedagogik metodlar — "Aqliy hujum", "Munozara", "Keys-stadi", "Rolli o'yinlar", "7 qadam", "Debatlar".

3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv — yoshlarning qiziqishlari, psixologik rivoji va ehtiyojlarini hisobga olish.

4. Amaliyot bilan uyg'unlik — sud, prokuratura, IIO, Notariat, FHDYo bilan hamkorlikda seminarlar, ekskursiyalar.

5. Raqamli ta'lim — elektron o'quv resurslari, videodarslar, virtual sud jarayonlari orqali o'rgatish.



Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan faoliyatlar

- Huquq fanlarini zamonaviy dars modellarida o'qitish
- Huquqiy targ'ibot haftaliklarida ishtirok
- "Huquqiy savodxonlik klublari" tashkil qilish
- Yoshlar o'rtasida ijtimoiy loyihalar va musobaqalar o'tkazish
- Oila va mahalla bilan hamkorlikda huquqiy tarbiya tadbirlarini tashkil etish

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayondagi mavjud muammolar va kamchiliklar

1. Ba'zi ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar sifatli o'tilmasligi
 - Darslar nazariy bo'lib qolmoqda, amaliyot bilan uyg'unlik yetarli emas.
2. Huquqiy tarbiya jarayonida oila va mahalla bilan hamkorlikning sustligi
 - Huquqiy mas'uliyat ko'proq maktab zimmasiga yuklatilgan.
3. Raqamli axborot makonidagi xavf va yolg'on ma'lumotlar
 - Yoshlar orasida noto'g'ri huquqiy qarashlar shakllanishiga sabab bo'lmoqda.
4. Pedagoglarning huquqiy kompetensiyasi yetarli darajada emas
 - O'qituvchilarning huquqiy bilim va malakasini oshirish talab qilinadi.
5. Huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarining yetarli emasligi
 - Ta'lim muassasalarida profilaktika ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagan.

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayondagi yutuqlar, natijalar va mavjud imkoniyatlar

1. Ta'lim tizimida huquqiy savodxonlik bo'yicha islohotlar
 - Yangi o'quv dasturlari, darsliklar va interfaol metodlar joriy etildi.
2. Raqamli ta'lim platformalari kengaymoqda
 - Elektron darsliklar, masofaviy ta'lim tizimlari taqdim etilmoqda.
3. Korruptsiyaga qarshi madaniyatni oshirish bo'yicha davlat siyosati
 - Yoshlar o'rtasida profilaktika ishlari kuchaydi.
4. Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik
 - Yoshlar ittifoqi, "Yuksalish", "Mahalla" tizimi yoshlar bilan faol ishlamoqda.
5. Yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar
 - Grantlar, loyihalar, stipendiyalar orqali yoshlarning huquqiy faolligi ortmoqda.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish – ijtimoiy, ma'naviy va pedagogik jihatdan serqirra jarayondir. Mazkur jarayonning samaradorligi ta'lim muassasalarining faoliyati, pedagoglarning malakasi, oilaning tarbiyaviy roli, mahalla va davlat tashkilotlarining hamkorligiga bevosita bog'liqdir.

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida:

1. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik uzluksizlik va



amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim eng muhim omil hisoblanadi.

2. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish yoshlarning huquqiy tafakkurini chuqurlashtiradi.

3. Shaxsiy namuna, oilaviy tarbiya va mahalla muhitining ta'siri beqiyosdir.

4. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalar, elektron platformalar va virtual treninglar yuqori natija beradi.

5. Pedagoglarning huquqiy kompetensiyasini muntazam oshirib borish yoshlar savodxonligining poydevoridir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyatli yoshlar — mustahkam fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi bo'lib, ularning huquqiy tafakkuri qanchalik yuksak bo'lsa, mamlakat taraqqiyoti shuncha barqaror bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy madaniyatni oshirishga oid farmon va qarorlari.
4. Karimov A. "Huquqiy madaniyat va yoshlar tarbiyasi". – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
5. Jo'rayev R., Xudoyorov Sh. "Huquqiy tarbiya metodikasi". – Toshkent, 2020.
6. Qodirov O. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent, 2019.
7. Xalqaro ilmiy maqolalar: "Legal Culture of Youth in the Context of Modern Education", Journal of Social Sciences, 2022.